



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: [10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI](https://doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI)



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: [10.51788/tsul.jurisprudence](https://doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence)

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**
The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.965(045)(575.1)

FUQAROLARNING SOLIQQA OID KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARINI TA'MINLASHDA SOLIQ MASLAHATI INSTITUTINING O'RNINI VA AHAMIYATI

Yuldoshbekov Avazbek Alisher o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0001-6132-1383

e-mail: yuldoshbekov94@mail.ru

Annotatsiya. Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun kerakli bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa ko'rinishi jahon amaliyotida qo'llanmagan. Bundan kelib chiqadiki, hukmron bo'g'in sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qilaveradi. Shuningdek, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi. Soliqlar istalgan davlat budjetini to'ldirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib, davlat iqtisodiy barkamolligining yuqori darajasi, odatda, soliq qonunchiligining ko'p qirrali ekanligi bilan xususiyatlidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq subyektlari tomonidan soliq mexanizmlaridan turli xil maqsad va vazifalar ilinjida foydalanishga urinishlar bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi turgan gap. Mazkur maqolada fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy burchlarini ta'minlashda soliq maslahati institutining o'rnini va ahamiyatiga doir masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, soliq burchi, konstitutsiyaviy burch, soliq maslahati, soliq maslahatchisi, moliyaviy savodxonlik, soliq munosabatlari.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА НАЛОГОВОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КОНСТИТУЦИОННЫХ НАЛОГОВЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ ГРАЖДАН

Юлдашбеков Авазбек Алишерович,самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Следует отметить, что до сих пор в мировой практике не применялось формирование финансовых ресурсов, необходимых государству для выполнения своих функций, помимо налогов. Кроме того, пока государство существует как доминирующее звено, налоги будут использоваться как основной метод финансирования. Также экономическая жизнь общества состоит из очень сложных экономических явлений, и эта сложность напрямую касается налогов, что требует глубокого понимания экономической природы налогов. Налоги являются одним из основных источников наполнения бюджета любого государства, а высокий уровень экономической эффективности государства обычно характеризуется универсальностью налогового законодательства. Здесь стоит отметить, что попытки субъектов налогообложения использовать налоговые механизмы для различных целей и задач вызывают ряд серьезных проблем. В данной статье анализируются вопросы, связанные с ролью и значением института налогового консультирования в обеспечении конституционных налоговых обязательств граждан.

Ключевые слова: конституция, налоговая обязанность, конституционная обязанность, налоговое консультирование, налоговый консультант, финансовая грамотность, налоговые отношения.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE INSTITUTE OF TAX CONSULTING IN ENSURING THE CONSTITUTIONAL TAX OBLIGATIONS OF CITIZENS

Yuldoshbekov Avazbek Alisher ugli,
Independent researcher of TSUL

Abstract. *It should be noted that until now, in world practice, the formation of financial resources necessary for the state to perform its functions, except for taxes, has not been used. It should be noted that as long as the state exists as the dominant entity, taxes will continue to be used as a method of financing. Also, the economic life of society consists of very complex economic phenomena, and this complexity directly relates to taxes, which requires a deep understanding of the economic nature of taxes. Taxes are one of the main sources of filling the budget of any state, and a high level of economic efficiency of the state is usually characterized by the universality of tax legislation. It is worth noting here that attempts by tax subjects to use tax mechanisms for various purposes and tasks raise a number of serious problems. This article analyzes issues related to the role and significance of the institution of tax consulting in ensuring the constitutional tax obligations of citizens.*

Keywords: *constitution, tax duty, constitutional duty, tax consulting, tax consultant, financial literacy, tax relations.*

O'zbekiston Respublikasi o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan bir qatorda o'zining har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini ham olmoqda. Bu esa mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, aholining eng zaif qatlamlari uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlarining ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi hamda jozibador pensiya tizimi kabi masalalarni qamrab oladi. Sodda til bilan aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega bo'lib, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan, o'z murojaatlarini emin-erkin amalga oshirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi fuqarolarning burchlari masalalariga bag'ishlangan bo'lib, xususan, bosh qomusimizning 63-moddasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart ekanligi, soliq va yig'implar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qilmasligi kerakligi qayd etib o'tilgan [1, 24-b].

Hozirgi vaqtda soliqlarni to'lash va soliq organlariga ijobiy munosabatni shakllantirishga, qonunga itoatkor soliq to'lovchini tarbiyalashga, mas'ul soliq to'lovchilarning obro'si va soliq qonunchiligini muntazam ravishda buzuvchi shaxslarning fuqarolik yetukligi va insofsizligi to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan kompleks

davlat siyosatini amalga oshirish alohida o‘rin egallamoqda.

Soliqqa oid targ‘ibotlar yordamida davlat soliq majburiyatlarini bajarmaslikka toqat qilmaydigan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun soliq to‘lovchining fuqarolik ongi rivojlanishiga, uning fuqarolik va soliq bilimi darajasiga ta‘sir qilish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, soliq va budjet munosabatlari shaffof bo‘lishi, ya‘ni soliq to‘lovchilar o‘z soliqlarini qay maqsadda sarflanayotganini haqiqatan ham ko‘ra bilishi kerak.

Soliq to‘lovchilarning soliq yukini kamaytirishga intilishi asosan zamonaviy davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Shunday qilib, Germaniyaning sobiq kansleri professor Lyudvig Erxard shunday deb yozgan edi: “Barcha fuqarolarning ham, iqtisodiy doiralarning ham soliq yukini kamaytirishga qaratilgan istaklarini juda adolatli deb tan olish kerak” [2, 18-b].

Zamonaviy sharoitda soliq qonunchiligi soliq vakillik va maslahat institutini nazarda

tutadi, bu soliq to‘lovchilarga soliq masalalarini hal qilishda, xususiyl maslahatlashuvlardan tortib sud va soliq organlarida ularning huquqlari va qonuniyl manfaatlarini himoya qilishgacha bo‘lgan malakali huquqiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlashga imkon beradi.

Ma‘lumki, shaxsning moliyaviyl savodxonligi uni jamiyat va davlat bilan samarali muloqot qilishga undaydi. Shuningdek, shaxsning moliyaviyl savodxonligini oshirish, unga ko‘rsatilayotgan moliyaviyl xizmatlar sifatiga ta‘sir qilish uchun rag‘batdir. Qonunchilik uchun moliyaviyl savodxonlikning ahamiyati moliyaviyl bozorlarning huquqiy jihatlaridan va hattoki moliya bilan bog‘liq munosabatlardan ham oshib ketadi.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, soliq maslahati institutini joriyl etishning o‘ziga xos bir qator muammolari mavjud bo‘lib, ularni nazariyl, huquqiy, metodik va integratsiya muammolariga ajratib o‘rganish mumkin (1-jadvalga qarang.)

1-jadval

Soliq maslahati institutini tashkil etishning nazariyl va metodologik muammolari.

Nazariyl muammolar	Huquqiy muammolar	Metodik muammolar	Integratsiya muammolari
Soliq maslahati prinsiplarini asoslash.	Soliq maslahatchisining huquqiy maqomi va vakolatlarini qonun bilan belgilash	Tashkilotlarimiz tomonidan tarqatiladigan ayrim turdagi sxemalar va operatsiyalarga oid ma‘lumotlarni vakolatli organlarga majburiyl oshkor qilish	Qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish
Soliq vositachiligining asosiy tushunchalarini aniqlash va izchil qo‘llash.	Soliq organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish shartlarini aniqlash.	Soliq bo‘yicha dastlabki xulosalar	Kasbiyl va o‘z-o‘zini tartibga solishning ishlashi
Soliq maslahatining sifat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish	Faoliyatni huquqiy tartibga solish	Kasbiyl standartlarning tarkibi va mazmuni	Obro‘ga oid xavflar
Axloqiy talablarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish	Agressiv soliq rejalashtirish sxemalarining tarqalishi uchun sanksiyalar	Kasbiyl to‘lovlarning miqdori va tuzilishi	Moliyaviyl javobgarlik va sug‘urta

Moliyaviyl savodxonlik darajasini oshirish jamoatchilik ongidagi illyuziyalar, fuqarolarning huquqiy ongidagi deformatsiyalar

va davlat huquqiy makonidagi nuqsonlarning shakllanishini cheklash imkonini beradi. Moliyaviyl savodxonlik, jumladan, munosib

hayot darajasini baholash, o'z huquqlarini e'lon qilish, ularni himoya qilish shakllari va usullarini tanlash imkonini beradi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, soliq maslahati soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida soliqqa oid qonunchilikni to'g'ri qo'llash hamda sharhlashda amaliy yordam beruvchi o'ziga xos va mos bo'lgan qonuniy vositachi vazifasini bajarishi lozim.

Soliq maslahati qonunda belgilangan tartibda soliq maslahatchisi maqomini olgan shaxslar tomonidan soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashda hamda soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyatdir [3].

Soliq maslahati maslahat oluvchi shaxsga soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan soliq to'lovchilar, yig'imlar to'lovchilar, soliq agentlari va boshqa shaxslarning majburiyatlarini lozim darajada bajarishga yordam beradigan va pulli asosda xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan kasbiy faoliyat turidir [4].

Soliq bo'yicha maslahat jarayoni deganda soliq maslahatchisi mijozning muammolarini

hal qilish yoki mijoz buni mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish uchun amalga oshiradigan ketma-ket harakatlar va tadbirlarni tushunadi. Ya'ni bu yuridik yoki jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yordam berishning har qanday shakli bo'lib, unda maslahatchi qabul qilingan qarorlar natijasi, xususan, ma'lum bir soliqning soliq bazasini to'g'ri hisoblash, soliqni to'lash tartibi va muddatlari uchun javobgar emas, ammo bu harakatlarni amalga oshirish uchun javobgar bo'lganlarga yordam beradi [5].

Xususan, quyidagi jadvalda soliq maslahati uchun institutsional vositalarni shakllantirish matritsasi keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, soliq maslahatchilarini soliq organlari va to'lovchilarning o'zaro munosabatlari jarayoniga jalb qilish huquq va majburiyatlar balansiga rioya etish orqali soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshiradi, shu bilan birga, soliq to'lovchilarni haddan tashqari ma'muriy ta'sirlardan xalos etadi va soliq organlariga qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun yetarli vakolatlarni saqlab qoladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Soliq maslahati uchun institutsional vositalarni shakllantirish matritsasi.

Tanlovni asoslash metodologiyasining komponenti	Rivojlanish metodologiyasining ta'siri	
	Soliq organlari	Soliq to'lovchilar
Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish	Vakolatli organlarning soliq to'lovchining muammolarini hal qilishga professional munosabati partiyaning ishbilarmonligi va xolisligini tushunish asosida shakllanadi, bu soliq ma'muriyatchiligining quyidagi prinsiplarini amalga oshirishga imkon beradi: <ul style="list-style-type: none"> – Mutanosiblik (soliq tekshiruvlari paytida e'tiborni eng muhim masalalarga jamlash) – Ochiqlik (soliq tekshiruvlariga yondashuvlarni oshkor etish, shu jumladan, soliq tekshiruvlari; qanday operatsiyalar xavfli deb topilgani va vakolatli organlar ularga qanday munosabatda bo'lishi haqida ma'lumot); – Ma'muriy tartib-taomilning samaradorligi (qarorlar va tushuntirishlarning izchilligi). 	Vakolatli organlar tomonidan hech qanday da'vo yo'qligiga erta bosqichda ishonchni qozonish imkoniyati. Soliq majburiyatlarini hisoblashda obyektiv omillarni oqilona hisobga olish: korporativ boshqaruv tuzilmasi va mexanizmlari, moliyaviy va boshqa ommaviy axborotni oshkor qilish talablari; <ul style="list-style-type: none"> – Buxgalteriya hisobi va soliq standartlariga rioya qilish zarurati.

Soliq bo'yicha maslahatchilarning soliq munosabatlaridagi ishtiroki	Boshqaruv jarayonlari uchun xarajatlarni kamaytirish. Soliq to'lovchilarni xavf guruhlari bo'yicha samarali tartiblash. Aniqlangan soliq risklariga javob berishga imkon beruvchi ma'lumotlar to'plami (mehnat uchun qo'shimcha resurslarni ajratish, qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish va h.k.)	Maslahatchini yollash quyidagilarga imkon beradi: – xatolardan qochish; – soliq to'lovchilarning noqonuniy yoki o'ta tajovuzkor harakatlarda ishtirokini cheklash; – faoliyatning soliq risklarini professional tahlil qilish; – samarali soliq rejalashtirishni amalga oshirish.
Vakolatli shaxsning dastlabki soliq xulosasi	Soliq qonunchiligining muayyan belgilangan normalari bilan bog'liq holda soliq rejalashtirishning turli xil variantlarini dastlabki bosqichda o'rganish va ularning budjet tizimining daromad darajasiga, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga ta'siri.	Muayyan operatsiyalarning soliq oqibatlarini to'g'risida oldindan ishonch hosil qilish qobiliyati
Axborotni ixtiyoriy ravishda oshkor qilish	Aniqroq strategik rejalashtirish, shu jumladan, resurslarni taqsimlashni boshqarish. Soliq tizimining risklarini aniqlash.	Faoliyatlarni amalga oshirishning soliq risklarini boshqarish. Kamaytirilgan soliq nazorati tekshiruvi.
Soliq organlari va soliq to'lovchilarning o'zaro hamkorligi	Soliq to'lovchining biznes-jarayonlari mohiyatini anglash quyidagilarni ta'minlaydi: yanada samarali nazorat, huquqbuzarliklarga o'z vaqtida javob berish qobiliyati; xatarlarni boshqarish; cheklangan resurslarni oqilona taqsimlash va soliq qonunchiligi talablariga muvofiqligini ta'minlash bilan bog'liq boshqa xarajatlar.	Soliq organining xatti-harakat va qarorlarida izchillikni namoyish etish (javob sifatida qabul qilingan qarorlarning bashoratligini oshirish huquqiy nizolar bo'yicha bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa xarajatlarni kamaytirishni ta'minlaydi.

Ushbu holat soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish maqsadida maslahat amaliyotini umumlashtirish natijalaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa vijdonli soliq to'lovchilar uchun soliq nazorati xarajatlarini kamaytiradi [6].

Xulosa o'rnida aytish lozimki, soliq bo'yicha maslahat jarayoni deganda soliq maslahatchisi mijozning muammolarini hal qilish yoki mijoz buni mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish uchun amalga oshiradigan ketma-ket harakatlar va tadbirlarni tushunadi. Ya'ni bu yuridik yoki jismoniy shaxslarni

soliqqa tortish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yordam berishning har qanday shakli bo'lib, unda maslahatchi qabul qilingan qarorlar natijasi, xususan, ma'lum bir soliqning soliq bazasini to'g'ri hisoblash, soliqni to'lash tartibi va muddatlari uchun javobgar emas, ammo bu harakatlarni amalga oshirish uchun javobgar bo'lganlarga yordam beradi. Ushbu holat soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish maqsadida maslahat amaliyotini umumlashtirish natijalaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa vijdonli soliq to'lovchilar uchun soliq nazorati xarajatlarini kamaytiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023. – 80 b. [Constitution of the Republic of Uzbekistan. [Text] Official publication. — Tashkent: "Uzbekistan" publishing house, 2023. — 80 p]

2. Erxard L. Blagosostoyanie dlya vsekh. – M.: Nachala-Press? 1991. – C. 18. [Erhard L. Welfare for all. – M.: Nachala-Press? 1991. – P. 18.]
3. Malikaydarov Timur Tynystanovich Nalogovoe konsultirovanie v RF: problemy i perspektivy razvitiya // SibSkript. 2013. №4 (56). [Malikaidarov Timur Tynystanovich Tax consulting in the Russian Federation: problems and development prospects // SibScript. 2013. No. 4 (56).] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovoe-konsultirovanie-v-rf-problemy-i-perspektivy-razvitiya>.
4. Artemenko D.A., Artemenko G.A., Belokrylova O.S., Porollo Ye.V., Xasheva Z.M. Nalogovoe administrirovanie i nalogovy kontrol: teoriya i praktika: monografiya. Krasnodar: Yujniy institut menedjmenta, 2006. [Artemenko D.A., Artemenko G.A., Belokrylova O.S., Porollo E.V., Khasheva Z.M. Tax administration and tax control: theory and practice: monograph. Krasnodar: Southern Institute of Management, 2006.]
5. L.S.Kirina, "Faktory, vliyayushie na kachestvo uslug nalogovogo konsultanta" // Ekonomicheskie strategii № 5/6, 2010 g. [L.S. Kirina, "Factors influencing the quality of tax consultant services" // Economic strategies No. 5/6, 2010]
6. Domnich M.P., Tyunina O.S. Nalogovoe konsultirovanie transfertnogo tsenoobrazovaniya korporatsiy // Ekonomika i sotsium. 2017. №3 (34). [Domnich M.P., Tyunina O.S. Tax consulting on transfer pricing of corporations // Economy and Society. 2017. No. 3] URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovoe-konsultirovanie-transfertnogo-tsenoobrazovaniya-korporatsiy-1>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.